

ALOENING BIZ BILGAN VA BILMAGAN XUSUSIYATLARI.

Xayatova Shoira Telmonovna

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrsi assistenti*

Xaydarova Sitora Dilshodjonovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

Sa'dullayev Sardor Sobirullayevich

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Asli vatani Afrika bo'lgan bu o'simlik yurtimizga bir necha asrlar oldin kirib kelgan. Hozir diyorumizda aloening turfa turlari mavjud. U manzarali va shifobaxsh o'simlik sifatida xonadonlarda o'stiriladi. Ushbu o'simlikning qariyb 180 turi ma'lum. Aloe bargidan olib, konservasiya qilingan sharbati esa turli yaralarni, kuygan terini, gastrit va kolitni davolashda ishlatiladi. Aloe — loladoshlar oilasiga mansub doim yashil, kup yillik o'tlar (ba'zan daraxtlar) turkumi Aloe turlari gultuvakda ham o'stiriladi; ularning bargi semiz, sersuv, qalin va tikanli. Aloe bargidan olinib konservatsiya qilingan sharbati esa turli yaralarni, kuygan terini, gastritni davolashda ishlatiladi. Aloening bargidan olinib konservatsiya qilingan biostimulyatorlarga boy ekstrakti organizm mustahkamligini oshiruvchi vosita sifatida teri ostiga yuboriladi.*

Kalit so'zlar: *Aloe, immunostimul, konyuktivit, stimulyator.*

ALOE PROPERTIES THAT WE KNOW AND DO NOT KNOW.

Annotation: *This plant, originally from Africa, came to our country several centuries ago. Now in our country there are several types of aloe. It is grown at home as an ornamental and medicinal plant. About 180 species of this plant are known. Canned aloe leaf juice is used to treat various wounds, burns, gastritis and colitis. Aloe is a group of evergreen perennial herbs (sometimes trees) belonging to the tulip family. their leaves are thick, rough, thick and prickly. Canned juice from aloe leaves is used to treat various wounds, burns, gastritis. Aloe leaf extract and canned leaves, rich in biostimulants, are injected under the skin as a means of increasing the body's strength.*

Key words: *Aloe, immunostimulant, conjunctivitis, stimulant.*

Xalq tabobatida aloe bargidan va uning shirasidan turli kasalliklarni: oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yaralarni, o'pka silini va boshqalarni davolashda foydalaniladi. Tarkibida bakteriyalarning ko'payishining oldini oluvchi modda bor. Shuning uchun ham uning bargidan ari chaqqanda, terini pichoq yoki boshqa narsa bilan kesib olganda yiringlab ketmasligi uchun aloe bargini o'rtasidan uzunasiga yorib, dardmand joyga qo'yib bog'lanadi. Arining zahrini ham ketkazadi. Tibbiyotda qo'llash

uchun aloening yangi yig'ilgan bargidan shira olinadi va spirt bilan konservalanadi. Shira bakterisid xususiyatiga ega bo'lib, kuygan joyni, yuqumli va boshqa yaralarni hamda me'da va ichakning ba'zi kasalliklari (kolit, gastrit va h.k.) davolashda ishlatiladi. Aloening suvli ekstrakti immunostimullovchi xususiyatga ega bo'lib, organizmni turli kasalliklardan himoya qiladi. Shuningdek, biogen stimulyatorlarga boy aloe barglaridan kanakunjut yog'i hamda ekvalipt efir moyi qo'shib, aloe emulsiyasi tayyorlanadi. Ushbu preparatlar organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. Shuning uchun aloe bargidan tayyorlangan stimulyatorli suyuq ekstrakt ko'z kasalliklari (konyunktivit, ko'z shishasimon tanachasining xiralashishi va h.k.)ni surunkali artrit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasini ham davolashda keng qo'llaniladi. Aloe emulsiyasi teri kasalliklarini (quruq va ho'l epidermit) hamda nur bilan davolash natijasida 2-, 3- darajali kuygan joylarni tuzatishda ishlatiladi.

Ginekologik xastaliklarda ham odatda aloe bargi shirasidan bachadon eroziyasi kasalligiga qarshi davolanadi. U nafaqat dorivor o'simlik balki ishtaha ochuvchi hamdir. Suyuq aloe ekstrakti o'simliklardan olinadigan biogen stimulyatorlar saqlovchi preparat hisoblanadi. Preparat moddalar almashinuvini rag'batlantiradi, xujayra metabolizmi, to'qimalar trofikasi va regenerasiyasini yaxshilaydi, shuningdek organizmning nospesifik rezistentligini oshirish maqsadida buyuriladi. O'simlik barglarida quyidagi moddalar mavjud: Ko'plab vitaminlar, shu jumladan C, E, A va B guruh vitaminlari: B1, B6 B12, efir moylari, amonokislotalar, polisaxaridlar, mineral tuzlar, organik kislotalar, flavanoidlar, glikoproteinlar, foliy kislota, karotinlar va K, Ca, Mg, Zn, Cu kabi elementlar bor. Aloening immunitetni rag'batlantiruvchi ta'siri uning tarkibida polisaxaridlar (aloemannan, asemannan) va glikoproteidlarning mavjudligi bilan bog'liq. Aloening neytral polisaxaridlari ba'zi mikroorganizmlarga nisbatan mikroblarga qarshi faollikka ega. Aloening glikoproteidlari bradikinin metabolizmida ishtirok etadi, xujayra proliferasiyasiga yordam beradi.

O'simlikning aloe Vera turida dorivorlik xususiyatlari ko'p bo'lib, undan davo sifatida foydalanish uchun o'simlik kamida 3 yoshda bo'lishi kerak. Aloening: muammo va yechimlar yoshi qanchalik katta bo'lsa uning dorivorlik xususiyatlari ham shuncha yuqori bo'ladi. Bakterisit xususiyati tufayli aloe sharbati streptokokk va stafilakokk infeksiyalariga qarshi ishlatiladi. O'simlikning to'qimalarini yangilanishini tezlashtirish xususiyati yiringli va yuqtirilgan yaralar, turli xil jarohatlar, yallig'lanish kasalliklari va nurlanishni davolashda ishlatiladi. Aloe sharbati tarkibidagi moddalar difteriya va dizenteriya tayoqchlariga qarshi faol hisoblanadi. Olimlar aloe sharbatidan teri kasalliklari va sil kasalligini davolashda ishlatiladigan antibiotikni ajratib olishdi. Oftalmologlar konyunktivit, miopiya, ko'z shishasimon tanasining xiralashishi va kataraktaning oldini olishda aloe sharbati qo'shilgan tomchi vositalaridan. Kam dozalarda qo'llangan aloe sharbati ovqatni hazm bo'lish jarayonini yengillashtiradi, safro ajralishini yaxshilaydi, ichaklar peristaltikasini normallashtiradi va inson organizmiga umumiy kuchaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ginekologik xastaliklarda ham

odatda aloë bargi, shirasidan bachadon eroziyasi, turli xil ginekologik yallig'lanish kasalliklariga qarshi vosita sifatida foydalaniladi. Aloe nafaqat dorivor o'simlik, balki ishtaha ochuvchi hamdir. Bosh og'rig'i hamda tuberkulyozda ham o'simlik ekstraktlari foyda beradi Aloe barglaridan ajratib olingan sharbatidan kosmetologiya sohasida yuz, qo'l va tana terisi uchun gel va kremlar tayyorlanib foydalaniladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash, va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora - tadbirlari to'g'risida" (Qonun hujjatlari milliy bazasi, 11.04.2020 - y., 07/20/4670/0414 - son) 1-bet

2.Dorivor o'simliklar atlası (o'quv qo'llanma) M.A.Jo'rayeva Toshkent., Noshir nashriyoti- 2019.

3.Aloe o'simligining dorivorlik xususiyatlarini o'qitishning ahamiyatim. A. XurramovaL. N. Egamberdiyeva Toshkent. 2021

4.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

5. Internet.www.google.uz, www.ziyonet.uz